

XITOIY TILI 把 “BA” FE’LINING GRAMMATIK VAZIFASINING O’ZGARISHI

PhD Z.Z. Artikova

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

Ziyda78@mail.ru

tel: 901867757

Annotatsiya

Mazkur maqolada xitoy tilidagi 把 “bǎ” birlikining grammatik vazifasi tarixiy taraqqiyot jarayonida qanday o’zgarishga uchragani tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida 把 “bǎ”ning dastlab fe’l vazifasida “ushlamoq”, “qo’lga olmoq” ma’nolarida qo’llangani, keyinchalik esa sintaktik muhit, qayta tahlil qilish jarayoni, til tizimini tartibga solish va idrok qonuniyatlari ta’sirida asta-sekin old ko’makchi vazifasiga o’tgani yoritilgan. Shuningdek, 把 konstruktsiyasining shakllanish bosqichlari hamda uning hozirgi zamon xitoy tilidagi grammatik xususiyatlari ilmiy jihatdan asoslab tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: 把 “bǎ”, old ko’makchi, sintaktik muhit, qayta tahlil qilish, leksik ma’no, grammatik ma’no, xitoy tili, grammatik vazifa, til evolyutsiyasi.

Introduction

Abstract

This article examines the historical development of the grammatical function of the Chinese linguistic unit 把 “bǎ”. The study demonstrates that 把 “bǎ” was originally used as a verb meaning “to hold” or “to take by hand”, but gradually evolved into a preposition under the influence of syntactic environment, reanalysis, language system regulation, and cognitive principles. In addition, the article analyzes the developmental stages of the 把 construction and its grammatical characteristics in modern Chinese from a scientific perspective.

Keywords: 把 “bǎ”, preposition, syntactic environment, reanalysis, lexical meaning, grammatical meaning, Chinese language, grammatical function, language evolution.

Kirish

Til – jamiyat hodisasi bo‘lib, odamlar ishlatayotgan til jamiyatning har bir a’zosiga ta’sir qilmay qolmaydi. Chunki shu orqali ular muloqot qiladilar, axborot almashadilar. 把 “ba” xitoy tili leksikasida murakkab, ishlatilish ko‘lami keng, moslashuvchan va ko‘p qo‘llaniladigan iyerogliflardan biri hisoblanadi. Xitoylik olim 许慎 Syushenning qadimgi 说文解字 [Shuōwén jiězì] – “Iyerogliflar izohi” lug‘atida 把 “bǎ”ni *ushlamoq, qo‘l bilan olmoq* ma’nolari ko‘rsatib o‘tilgan¹. 把 “bǎ” iyeroglifida 手 [shǒu] – qo‘l kaliti bor bo‘lib, bu kalit

¹ 董玉芝. 说“把”. – 新疆: 新疆教育学院学报, 2007, Vol,23. – №3. – 页. 74.

iyeroglifning yonida kelsa “才” tarzida yoziladi, odatda, qo‘l va qo‘l harakati bilan bog‘liq iyerogliflarda uchraydi². Bundan bilishimiz mumkinki 把 “bǎ” ham qo‘l va qo‘l harakati bilan bog‘liq iyerolif hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Umuman so‘zning grammatik funksiyasida o‘zgarish sodir bo‘lishi masalasida ko‘pgina olimlar o‘zlarining fikrlarini bayon etganlar. Hopper & Traugott (Xopper va Traugott)larning fikricha “so‘zning grammatik vazifasida o‘zgarish sodir bo‘lishining asosiy sababi bu qaytadan tahlil qilish va xulosa chiqarish”dadir³. 沈家煊 Shen Jyasyuanning yozishicha so‘zning grammatik vazifasida o‘zgarish sodir bo‘lishi 5 ta yo‘l asosida kechadi: metafora, xulosa, umumlashtirish, uyg‘unlashtirish va singdirishdir⁴. 吗清华 Ma Tsingxua so‘zning grammatik funksiyasidagi o‘zgarishini, “voqelikdagi vazifa, psixologik kuch, til bilan muloqot, til ichidagi kuch” bilan bog‘lagan⁵. 刘坚 Lyu Jyan, 曹广顺 Sao Guangshun, 吴福祥 Vu Fussyang singari xitoyshunoslarning fikrlari bir-biriga o‘xshash bo‘lib, quyidagilarni bayon etadilar: qaytadan tahlil qilish, sintaktik vazifa va til vaziyatining, shuningdek, so‘z ma‘nosining o‘zgarishi so‘zning grammatik funksiyasida o‘zgarish sodir bo‘lishiga olib keladi⁶. Yuqorida keltirgan olimlarning fikrlarini o‘rganib, aytish mumkinki, 把 “bǎ”dagi bu jarayonlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1) Sintaktik vazifasining o‘zgarishi. Xitoy tilidagi so‘z turkumlarining ko‘p qismi asosan mustaqil so‘z turkumlari fe‘l va sifatdan kelib chiqqan. Fe‘l “Ega —kesim — to‘ldiruvchi” modelida kesim vazifasida keladi. Bunday tuzilishdagi gaplarda fe‘l-kesim, asosan, bitta bo‘lib, u gapning markaziy bo‘lagi hisoblanib harakat yoki holatni ifodalaydi. Agar fe‘l “Ega — kesim — to‘ldiruvchi” tipidagi gaplarda kesim o‘rnida kelmasa hamda u gapning markaziy bo‘lagi hisoblanmasa, unda fe‘lning asosiy ma‘nosi sustlashadi. Fe‘lning gapda ikkinchi darajada kelish holati takrorlanaversa, gap strukturasi uning o‘rni turg‘un holatga o‘tadi, ma‘nosi, vazifasida ham o‘zgarish sodir bo‘ladi. Bu o‘z navbatida fe‘lning grammatik funksiyasida o‘zgarishni yuzaga keltiradi.

秦 Tsing davrigacha bo‘lgan vaqt davomida 把 “bǎ” gapda faqat fe‘l vazifasida ishlatilgan. 汉 Han davrida bitta gapda 把 “bǎ” fe‘li bilan birga yana boshqa fe‘lning qo‘llanishi sababli “把 fe‘li + 1-to‘ldiruvchi + fe‘l + (2-to‘ldiruvchi)” tipidagi gaplar shakllangan. Bu strukturada 把 “bǎ” fe‘li gapdagi boshqa fe‘ldan oldin joylashgani va uning ishlatilishida sintaktik o‘zgarish sodir bo‘lgani uchun 把 “bǎ”ning fe‘lli ma‘nosi asta-sekin sustlashib borgan. 唐 Tang davri boshlarida paydo bo‘lgan “把 fe‘li + 1-to‘ldiruvchi + fe‘l + (2-to‘ldiruvchi)” modelida 1-to‘ldiruvchi va 2-to‘ldiruvchi teng bo‘lgan. Bu yerda 把 “bǎ” gapning markaziy qismi bo‘lib

² Xasanova F.M. Xitoy yozuvi iyeroglifikasi asoslari. – Toshkent: TDIIIY, 2015. – B. 109-110.

³ Hopper P.J. & Traugott E.C. Grammaticalization. – Cambridge: Cambridge university, 2003. / Beijing: Pekin university, 2005. – P. 176.

⁴ 沈家煊. “语法化”研究综观. – 北京: 外语教学与研究, 1994. – №4. – 页. 22.

⁵ 吗清华. 词汇语法化动因. – 长春: 汉语学习学报, 2003. – 页. 19.

⁶ 白维国, 刘坚, 曹广顺. 近代汉语虚词. – 北京: 商务印书馆, 2018. – 页. 70.; 吴福祥. 再论处置式的来源. – 北京: 语言研究学报, 2003. – 第3期. – 页. 1-14.

kelmaydi, uning leksik ma'nosida sustlashish sodir bo'ladi. Keyinchalik ishlatilgan “把 fe'li + to'ldiruvchi + fe'l + 之” shaklida 把 “bǎ” ikkinchi darajali fe'l o'rniga tushib, fe'lga xos ma'nosi yanada pasaygan. Bunday gaplarda 把 “bǎ” o'rning o'zgarishi uning leksik ma'nosini sustlashishiga sabab bo'lgan.

2) Qayta tahlil qilish. Bu jarayon g'arb tilshunosligidan kirgan bo'lib, bu haqida Ronald Langacker shunday yozadi: “Qayta tahlil qilishda so'zda emas, balki gap tuzilishida o'zgarish hosil bo'ladi”⁷. Masalan, agar gapni “(A, V), S” strukturada desak, qayta tahlil qilish orqali gap “A, (V, S)” shaklga o'zgaradi. Qayta tahlil qilishdan maqsad idrok orqali bir so'z grammatik vazifasining o'zgarishi natijasida (shu yerda yordamchi so'z turkumlari hosil bo'ladi) yangi strukturani yuzaga keltirish, hamda uni belgilab qo'yishdan iborat.

3) Sintaktik muhit. Traygottning fikricha, so'z muayyan grammatik vazifasining o'zgarishi aniq bir sintaktik muhitda ro'y beradi⁸. Shu ma'noda, tadqiq qilinayotgan mavzu bo'yicha olingan bilimlar til evolyutsiyasidagi ma'lum bir aspektni ko'rib chiqish va tahlilga tortish imkonini beradi.

把 “bǎ” 秦 Tsin davrigacha bo'lgan vaqt davomida gapda markaziy bo'lak vazifasini bajargan. Xan davriga kelib bitta gapda boshqa fe'llar bilan birga ishlatilganli sababli, 把 “bǎ”ning asl leksik ma'nosi asta-sekin yo'qola boshlagan. 唐 Tang davrida esa把 “bǎ”ning fe'l ma'nosi qo'llanilishi biroz murakkablashgan, bu esa o'z navbatida uning leksik ma'nosiga ta'sir qilgan. Shunday qilib, mazkur jarayonlar 把 “bǎ”ning fe'ldan old ko'makchi vazifasiga o'tishiga sharoit yaratib bergan.

4) Til tizimini tartibga solish. Grammatika bir butun hodisadir, har bir gap shakli o'rtasida o'zaro bog'liqlik, o'zaro chegara bor⁹. Agar gapning biron qismida o'zgarish sodir bo'lsa, butun grammatik tizimning muvozanati buziladi va bu gap tartibidagi o'zgarishlarni keltirib chiqiradi. Yangi grammatik usullar vazifasi o'xshash grammatik shakllarga oson ta'sir ko'rsatadi. Xitoy tilida ikkita fe'lining bir vaqtda kelishi avval bo'lgan tizimga ta'sir ko'rsatadi va yangi muvozanatni o'rnatish uchun, albatta, gapdagi ikkita fe'ldan bittasini markaziy gap bo'lagi sifatida tanlash shartini qo'yadi. Tanlanmagan boshqa fe'lining leksik ma'nosida to'xtovsiz o'zgarishlar bo'lib, grammatikalashish jarayoni yuz beradi. 秦 Tsin davrigacha bo'lgan vaqt davomida “把 fe'li + to'ldiruvchi” gap shakli ishlatilgan, 把 “bǎ” gapda yagona fe'l va uning markaziy bo'lagi bo'lib kelgan. Keyinchalik esa “把 fe'li + 1-to'ldiruvchi + fe'l + (2-to'ldiruvchi)” gap strukturasi 把 “bǎ” boshqa fe'l bilan bitta gapda ishlatilgan, uning fe'llik xususiyati sustlashgan. Grammatik tizimda yangi muvozanatni topish uchun, birinchi navbatda, ikkita fe'ldan bittasini tanlash taqozo etiladi. Vaqtlar o'tib “把 fe'li + 1- to'ldiruvchi + fe'l + (2-to'ldiruvchi)” gap strukturasi paydo bo'lib, 把 “bǎ”ning fe'lga xos xususiyati yo'qolib borgan. “把 old ko'makchisi + to'ldiruvchi + ravish + fe'l” va “把 old ko'makchisi

⁷ Langacker R. Foundations of cognitive grammar. – Stanford: Stanford university. 1987/2004. – Vol.1. – 25.

⁸ Hopper P.J. & Traugott E.C. Grammaticalization. – Cambridge: Cambridge university, 2003. / Beijing: Pekin university, 2005. -页. 176.

⁹ 石毓智. 汉语语法化的历程. – 北京: 北京大学出版社, 2001. – 页. 51.

+ to‘ldiruvchi + ravish + fe’l + buyuy” shakllari yuzaga kelgandan keyin esa 把 “bǎ” leksik ma’nosini batamom yo‘qotib, old ko‘makchi vazifasida ishlatila boshlagan.

5) Idrok qilish qonuniyati. Insonlar tafakkuri aniqlikdan mavhumlikka qarab rivojlanib boradi. Bu qonuniyatning borligi sababli so‘zlar ham to‘xtovsiz o‘zgarishda bo‘ladi. Natijada so‘zlarda passivlashish jarayoni kuzatiladi. So‘z asl ma’nosining yo‘qolib borishi yoki uning boshqa vazifa kasb etishi bois grammatik funksiyada o‘zgarish ro‘y beradi. 把 “bǎ”ning dastlabki ma’nosi “qo‘lda ushlamoq”, “qo‘lga olmoq” bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan fe’l sifatidagi leksik ma’nosi sustlashib, old ko‘makchi vazifasini egallagan.

Natija va muhokama

秦 Tsing davrigacha (er.av. 221) 把 “bǎ” faqatgina fe’l vazifasida ishlatilgan. Bu davrda把 “bǎ” asosan 握 [wò] “qo‘lda ushlamoq” 拿 [ná] “qo‘lga olmoq” ma’nolarini bergan. Shakli esa quyidagicha bo‘lgan: “把 fe’li + to‘ldiruvchi”.

竖亥右手把算，右手指青丘北¹⁰。 [Shùhài yòushǒu bǎ suàn, yòushǒu zhǐ qīngqiūběi.] – Shuxay o‘ng qo‘li bilan hisoblash aslahasini ushlab, chap qo‘li bilan Tsing tsyov davlatining shimol tarafini ko‘rsatdi.

汉 Xan, 魏 Vey Dzing sulolalari (er. 222-589) davrida “把 fe’li + 1-to‘ldiruvchi + fe’l + 2-to‘ldiruvchi” ko‘rinishdagi struktura qo‘llana boshlagan. 把 bǎ fe’li gapda o‘zidan keyin yana bitta fe’l bilan bog‘lanib kelgan. Garchi, 把 bǎ fe’l vazifasida kelsa ham, lekin davrlar o‘tishi bilan uning fe’lga xos leksik ma’nosi asta-sekin sustlasha boshlagan.

其于王事，出军行师，把旌杖钺，誓士众¹¹。 [Qí yú wángshì, chū jūnxíng shì, bǎ jīngzhàng yuè, shìshì zhòng.] – U davlat ishlarida, armiyani urushga olib chiqishda qo‘mondon bo‘lib, bayroqni qo‘lda ushlab, barchaning oldida qasamyod qildi.

唐 Tang (er. 618-907) davrida 把 “bǎ”ning yangi ko‘rinishi paydo bo‘ldi: “把 fe’li + 1-to‘ldiruvchi + fe’l + (2-to‘ldiruvchi)”. Bu davrda gapdagi asosiy ma’no markaziy fe’lga, ya’ni gapdagi ikkinchi fe’lga borib taqaladi, shuning uchun 把 “bǎ”ning fe’l sifatidagi leksik ma’nosi sustlashishda davom etgan.

莫愁寒族无人存，但愿春官把卷看¹²。 [Mò chóu hán zú wú rén cún, dàn yuàn chūn guān bǎ juǎn kàn.] – Bu xarob bo‘lgan uyda biror kishi yashamas edi, ammo bu amaldor kitobni ushlab ko‘rib o‘tirar edi.

Keyinchalik yana bir struktura paydo bo‘ladi: “把 fe’li + to‘ldiruvchi + fe’l + 之”. Bunda “之” [zhī] to‘ldiruvchi vazifasida keladi. Mazkur davrda ham 把 “bǎ” fe’l vazifasida kelsa-da, lekin uning leksik ma’nosi o‘z kuchini yo‘qotganligi ko‘rinadi.

¹⁰ 山海经. 卷九. 海外东经 //

<https://bcc.blcu.edu.cn/zh/search/5/%E7%AB%96%E4%BA%A5%E5%8F%B3%E6%89%8B%E6%8A%8A%E7%AE%97>

¹¹ 晋书. 卷二十七 // <http://www.guoxue123.com/shibu/0101/00jsj/026.htm>

¹² 杜荀鹤. 入关因别舍弟 // <https://bcc.blcu.edu.cn/zh/search/5/%E6%8A%8A%E5%8D%B7%E7%9C%8B>

皇帝随遣高力士把剑削柱看之¹³。 [Huángdì suíqiǎn gāolìshì bǎ jiàn xuē zhù kàn zhī.] - Emperor askar Gaolini qilich g'ilofini ko'rib kelish uchun yubordi.

“把 old ko'makchisi + to'ldiruvchi + ravish + fe'l” tuzulishidagi gaplardan keyin 把 “bǎ” asta-sekin o'z leksik ma'nosini yo'qotib, faqat grammatik ma'noda ishlatila boshlagan. Misol uchun: 阿郎把数都计算 [Aláng bǎ shù dū jìsuàn] – Alang barchasini hisoblab chiqdi. Shu tariqa, ushbu jihat keyingi davrlarda 把 “bǎ”ning old ko'makchi vazifasida ishlatilishiga sabab bo'lgan. “把 old ko'makchi + to'ldiruvchi + fe'l + buyuy¹⁴” modelida 把 “bǎ” ilk bor old ko'makchi vazifasida qo'llangan.

汾山把一枝木吹两下¹⁵。 [Guīshān bǎ yī zhī mù chuī liǎng sān xià.] – Guy Shan daraxtga qarab ikki marta pufladi.

Anglashiladiki, 把 “bǎ”ning dastlabki “qo'lda ushlamoq”, “qo'lga olmoq” ma'nolariga davr o'tishi bilan mavhum semalar ham qo'shib borgan. “把 fe'li + 1-to'ldiruvchi + fe'l + 2-to'ldiruvchi” modelida harakat 把 “bǎ” fe'li va ikkinchi fe'l bilan ifodalanishidan boshlab, to sintaktik strukturada old ko'makchi sifatida ishlatilishigacha bo'lgan jarayonda 把 “bǎ”da ko'p o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Xulosa

So'z grammatik vazifasining o'zgarishi uzoq vaqt, asta-sekin sodir bo'ladigan jarayondir. Bunda so'z avval o'zining ilk ma'nosida, keyinchalik esa boshqa so'z bilan birga ishlatiladi va nihoyat ikkita so'zdan birining gapda o'sha vazifada qolishi muammosi tug'ilganda, so'zlardan birining tub ma'nosi boshqa vazifada qo'llana boshlaydi. Ta'kidlash kerakki, bir necha zamonlar ichida, ayniqsa 唐 Tang davridan keyin 把 “bǎ” ham mustaqil so'z, ham yordamchi so'z sifatida istifoda etilgan. Hozirgi zamon xitoy tilida 把 “bǎ” fe'l vazifasida juda kam ishlatiladi, ammo uning ot, old ko'makchi, hisob so'zi sifatida ishlatilishi ko'lami kengaygan.

把 “ba” grammatik vazifasida o'zgarish sodir bo'lishida va uning leksik ma'nolarini shakllanishida qayta tahlil qilish jarayoni, sintaktik muhit, til tizimini tartibga solish, mantiq kategoriyalari ta'sir qilganligi o'z aksini topdi. 把 “ba” grammatik vazifasining o'zgarishi uzoq vaqt, asta-sekin sodir bo'lgan, bunda so'z avval o'zining ilk ma'nosida, keyinchalik esa boshqa so'z bilan birga ishlatilgan va nihoyat ikkita so'zdan birining gapda o'sha vazifada qolishi muammosi tug'ilganda, so'zlardan birining tub ma'nosi boshqa vazifada qo'llana boshlangani aniqlandi.

¹³ 敦煌变文集新书. 卷二 //

<https://bcc.blcu.edu.cn/zh/search/5/%E6%8A%8A%E5%89%91%E5%89%8A%E6%9F%B1%E7%9C%8B%E4%B9%8B>

¹⁴ Харакат микдорини билдирувчи ҳол (хитой тилида буюй деб аталади) – хитой тили грамматикасида оддий ҳолдан фарқ қилиб ажратилади. Энг кўзга ташланадиган фарқи буюй феъл–кесимга нисбатан кейинги позицияни эгаллайди ва ҳаракат ҳоли вазифасини бажараётган сўзлар учун ишлатилади.

¹⁵ <http://wuming.xuefo.net/show2.asp?id=2797>

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 董玉芝. 说“把”. – 新疆: 新疆教育学院学报, 2007, Vol,23. – №3. – 页. 74.
2. Xasanova F.M. Xitoy yozuvi iyeroglifakasi asoslari. – Toshkent: TDIU, 2015. – B. 109-110.
3. Hopper P.J. & Traugott E.C. Grammaticalization. – Cambridge: Cambridge university, 2003. / Beijing: Pekin university, 2005. – P. 176.
4. 沈家焯. “语法化”研究综观. – 北京: 外语教学与研究, 1994. – №4. – 页. 22.
5. 吗清华. 词汇语法化动因. – 长春: 汉语学习学报, 2003. – 页. 19.
6. 白维国, 刘坚, 曹广顺. 近代汉语虚词. – 北京: 商务印书馆, 2018. – 页. 70.; 吴福祥. 再论处置式的来源. – 北京: 语言研究学报, 2003. – 第3期. – 页. 1-14.
7. Langacker R. Foundations of cognitive grammar. – Stanford: Stanford university. 1987/2004. – Vol,1. – 25.
8. Hopper P.J. & Traugott E.C. Grammaticalization. – Cambridge: Cambridge university, 2003. / Beijing: Pekin university, 2005. -页. 176.
9. 石毓智. 汉语语法化的历程. – 北京: 北京大学出版社, 2001. – 页. 51.
10. 山海经. 卷九. 海外东经 //
11. 晋书. 卷二十七 // <http://www.guoxue123.com/shibu/0101/00jsj/026.htm>
12. 杜荀鹤. 入关因别舍弟 //